XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-iyul VII-14-77-5-0-K/25 Navoiy viloyati

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 16^2, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6121-sonli Farmoni, viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 21-apreldagi 20/26-24747-sonli, 2025-yil 18-iyundagi 20/26-39636-sonli xatlari, Karmana tumani hokimining 2025-yil 28-aprel kunidagi 01-02/173-sonli xati, viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari V.Rajabovning Navoiy viloyati Karmana tumani yuridik shaxslarni qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlari soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsentlar to‘g‘risidagi xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi VII-4-3-5-0-K/25-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish to‘g‘risidagi hisoboti hamda bildirilgan fikr va mulohazalarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navoiy viloyati soliq boshqarmasining 2025-yil 21-apreldagi 20/26-24747-sonli, 2025-yil 18-iyundagi 20/26-39636-sonli xati hamda viloyat soliq boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari V.Rajabovning hisoboti hamda bildirgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi VII-4-3-5-0-K/25-sonli qarorning 1-ilovasida Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2025-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlari miqdori 10-bandi ilovaga muvofiq o‘zgartirilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov) va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet,

tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi  ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 1-iyuldagi
VII-14-77-5-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha 2025-yilda Navoiy viloyati uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer soligʻining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T/P	**Shaharlar va tumanlar nomi**	**Yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari uchun yer soligʻi stavkasi**	
		Koeffitsent miqdori	**Soliq summasi (1 gektar uchun, ming soʻmda)**
1	Karmana tuman	0,54	21 384,0